

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

BACHADON DEVORIDAGI CHANDIQ TO‘QIMASINING QAYTA SHAKLLANISHI (REMODELLANISHI) VA TUG‘RUQ NATIJALARI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Tojjeva Shahzoda O‘ral qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Akusher-genekologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

e-mail: tojjiyevashahzoda9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kesarcha kesish operatsiyasidan keyingi bachadon devori chandiqlik to‘qimasining remodellanishi tug‘ruq natijalariga qanday ta’sir qilishini klinik-morfologik nuqtai nazardan baholashga qaratilgan. Tadqiqot Surxandaryo viloyati Prenatal markazida davolangan 150 nafar ayol ishtirokida o‘tkazildi. Bemorlar kesarcha kesishdan keyingi 12–36 oy ichida homilador bo‘lgan, bachadon devoridagi chandiqlanish ultratovush va morfologik tekshiriv orqali baholash mezonlari (qalinlik, kontur, to‘qima zichligi) asnosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida chandiqlik to‘qimasining qayta shakllanish darajasi bilan tug‘ruq natijalari o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik aniqlandi. Klinik-morfologik baholash protokollari orqali kelajakda ona va bola xavfsizligini oshirish mumkin.

Kalit so‘zlar: Bachadon devori chandiqlik to‘qimasining remodellanishi, kesarcha kesishdan keyingi tabiiy tug‘ruq (VBAC), onalik natijalari, perinatal natijalar, ultrasonografik baholash, bachadon past segmenti.

“IMPACT OF UTERINE SCAR TISSU REMODELING ON DELIVERY OUTCOMES: A PROSPECTIVE OBSERVATIONAL STUDY”

Abstract: This article aims to evaluate, from a clinical and morphological perspective, how the remodeling of uterine wall scar tissue after cesarean section affects childbirth outcomes. The study involved 150 women treated at the Prenatal Center of Surkhandarya region. The patients became pregnant within 12-36 months after cesarean section, and the scarring in the uterine wall was analyzed based on ultrasound and morphological examination criteria (thickness, contour, tissue density). The study revealed a significant correlation between the degree of scar tissue remodeling and childbirth outcomes. Through clinical and morphological assessment

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

protocols, it may be possible to enhance the safety of both mother and child in future pregnancies.

Keywords: Uterine scar remodeling; Vaginal birth after cesarean (VBAC); Maternal outcomes; Perinatal outcomes; Ultrasound assessment; Lower uterine segment.

«ВЛИЯНИЕ РЕМОДЕЛИРОВАНИЯ РУБЦОВОЙ ТКАНИ СТЕНКИ МАТКИ НА ИСХОДЫ РОДОВ: ПРОСПЕКТИВНОЕ НАБЛЮДАТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ»

Аннотация: Данная статья посвящена клинико-морфологической оценке того, как ремоделирование рубцовой ткани стенки матки после операции кесарева сечения влияет на исходы родов. Исследование проводилось с участием 150 женщин, проходивших лечение в Пренатальном центре Сурхандарьинской области. Пациенты были беременны в течение 12-36 месяцев после кесарева сечения, рубцевание на стенке матки анализировалось на основе критериев оценки (толщина, контур, плотность ткани) с помощью ультразвукового и морфологического исследования. В результате исследования выявлена значимая зависимость между степенью ремоделирования рубцовой ткани и исходом родов. Благодаря протоколам клинико-морфологической оценки можно повысить безопасность матери и ребенка в будущем.

Ключевые слова: Ремоделирование рубца матки; Вагинальные роды после кесарева сечения (VBAC); Материнские исходы; Перинатальные исходы; Ультразвуковая оценка; Нижний сегмент матки.

Kirish: So‘nggi o‘n yilliklarda kesarcha kesish (sectio caesarea) amaliyotining o‘shish sur‘ati jahon akusherlik amaliyotida eng muxim muammolardan biriga aylanib bormoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, ayrim mamlakatlarda kesarcha kesish ulushi 35–45% gacha yetgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich tavsiya etilgan me‘yor — 10–15%dan bir necha barobar yuqori hisoblanadi. Kesarcha kesish, shubhasiz, ayol va bola hayotini saqlab qolishda muhim qo‘shimcha imkoniyat yaratadi, ammo uning uzoq muddatli morfologik, akusherlik va reproduktiv oqibatlari hali to‘liq baxolanmagan va ko‘plab hollarda yetarlicha o‘rganilmagan.

Kesarcha amaliyotidan keyin bachadon devorida shakllanadigan chandiq to‘qimasi morfologik jihatdan normal miometriydan tubdan farq qiladi. Normal miometriy uch qatlamli mushak tuzilishiga ega bo‘lib, yuqori elastiklik, qon bilan

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

ta'minlanish va funksional barqarorlik bilan tavsiflanadi. Chandiq to'qimasida esa fibroz-kollagen strukturasi ustunlik qiladi, mikrosirkulyatsiya susaygan bo'ladi va hujayralarning qayta tiklanish qobiliyati cheklangan. Shu sababli, chandiq sohasi keyingi homiladorliklar davomida mexanik stressga chidamsiz bo'lib, bachadon yorilishi (ruptura uteri) xavfini sezilarli darajada oshiradi.

Zamonaviy morfologiyada chandiq to'qimasining jarrohlikdan keyingi qayta shakllanish jarayonlari «remodellanish» (remodeling) tushunchasi bilan ifodalanadi. Remodellanish jarayoni fibroblastlar faolligi, kollagen turlari (I/III) nisbati, ekstrasellyulyar matriksning qayta tuzilishi, matriks metalloproteinazalar (MMP-2, MMP-9) faolligi, angiogenez darajasi (VEGF ekspressiyasi) kabi bir qator murakkab biologik mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Remodellanish yetarli darajada kechmagan hollarda chandiqning mexanik barqarorligi tiklanmaydi, bu esa VVAS (VBAC – Vaginal Birth After Cesarean) uchun asosiy xavf omillaridan biri sifatida qayd etiladi. Ilmiy manbalarda chandiqning morfo-strukturaviy xususiyatlari VVAS xavfsizligi bilan bevosita bog'liq ekani ko'p bor ta'kidlangan. Jumladan:

Bujold va hamkorlari (2010) chandiq qalinligi 2 mm dan past bo'lganda bachadon yorilishi xavfi bir necha barobar ortishi haqida ma'lumot bergan;

Jastrow va hamkorlari (2016) chandiqning notekis konturi perinatal asoratlar ko'payishi bilan bog'liqligini ta'kidlagan;

Pomorski va boshqalar (2014) kollagen I/III turlari nisbati remodellanish darajasi va to'qima mustahkamligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini isbotlagan.

Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotlarning ko'pchiligida chandiq to'qimasining morfologik va gistologik ko'rsatkichlari klinik omillar — tug'ruq davomiyligi, servikal ochilish dinamikasi, og'riq sindromi, UZI belgilar hamda perinatal natijalar bilan uzviy bog'liq ekani qayd etilgan. Biroq mavjud instrumental usullar (UZI, Doppler, elastografiya) chandiqning to'liq morfostrukturaviy holatini aks ettirmaydi, shuningdek, kesarcha chandiq sifatini baholashda yagona «gold standard» mezonlar hali ishlab chiqilmagan. Morfologik baholashda ham turli tadqiqotlarda qo'llaniladigan kriteriyalar (fibroz darajasi, kollagen nisbati, vaskulyarizatsiya indeksi) o'zaro muvofiq emasligi ilmiy bo'shliqni yanada kuchaytiradi. Xususan, matriks metalloproteinazalar faolligi, fibroblastlar subtiplari, angiogen markerlar va kollagen remodellanishining klinik ko'rsatkichlar bilan o'zaro munosabati haqidagi aniq, tizimlashtirilgan ma'lumotlar yo'qligi kesarcha chandiq'ini prognozlashda biomarkerlar ishlab chiqish imkoniyatlarini cheklab kelmoqda.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

О‘zbekistonda, jumladan Surxandaryo viloyatida kesarcha kesishdan keyingi chandiq to‘qimasining morfologik xususiyatlari, uning remodellanish darajasi va klinik natijalar bilan bog‘liqligini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Amaldagi akusherlik amaliyotida asosiy e‘tibor klinik ko‘rsatkichlarga qaratilgan bo‘lib, morfo-gistologik tahlillar cheklangan holda qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot mamlakatimizda kesarcha kesishdan keyingi chandiq remodellanishini o‘rganishga qaratilgan ilk kompleks klinik-morfologik tahlil bo‘lib, ham ilmiy, ham amaliy jihatdan yuqori ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bachadon chandiq to‘qimasining morfologik remodellanish darajasini chuqur o‘rganish orqali:

VVAS xavfini aniq prognostik baholash, tug‘ruq taktikasiga individual yondashish, perinatal asoratlar sonini kamaytirish, kesarcha kesish takrorlanishining oldini olish, ayollarning reproduktiv salomatligini mustahkamlash imkoniyatlari yaratiladi.

Shu bois, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — kesarcha kesishdan keyingi chandiq to‘qimasining morfologik tuzilishi va remodellanish bosqichlarini aniqlash, ularning klinik ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liqligini baholash hamda remodellanish darajasiga asoslangan prognostik modelni ishlab chiqishdan iborat.

Materiallar va usullar : Prospektiv kuzatuv tadqiqoti bo‘lib, u Surxandaryo viloyati Prenatal markazida 2023–2025-yillar davomida yotib davolangan 150 nafar bemorlarda olib borildi. Tadqiqot etik komissiya tomonidan tasdiqlangan va barcha ishtirokchilardan yozma rozilik olindi.

Ishtirokchilar:

Tadqiqotga quyidagi kriteriyalarga javob beradigan 150 nafar ayol jalb qilindi:

Oldingi kamida bitta kesarcha kesish tajribasi mavjud;

12–36 oy ichida homilador bo‘lgan;

Tabiiy tug‘ruqqa urinishga ruxsat berilgan, boshqa ginekologik patologiyalari bo‘lmagan;

Chandiq sohasi ultratovush va klinik baholash uchun yetarli ko‘rinishda bo‘lgan.

Eksklyuziya kriteriyalari:

Bachadonda bir nechta kesarcha kesish bo‘lgan holatlar;

Bachadon miometriyida patologik holatlar (fibromioma, konjenital deformatsiyalar);

Surunkali yallig‘lanish kasalliklari;

Ona yoki bola uchun xavfli ko‘rsatmalar mavjud bo‘lsa.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

Кlinik baholash:

Bemorlar homiladorlik davomida standart prenatal tekshiruvlardan o'tkazildi. Tug'ruq usuli, ona va bola natijalari, asoratlar protokolga muvofiq qayd etildi.

Morfo-funksional baholash:

Bachadon devoridagi chandiqlik to'qimasi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

1. Qalinlik (mm) — ultratovushda past segment devorining o'lchami;
2. Kontur silliqligi — chandiqlik yuzasining tekisligi, notekislik darajasi;
3. To'qima zichligi — ultratovushda ekogenlik orqali aniqlangan;
4. Remodellanish darajasi — chandiqlik qalinligi, kontur va zichlik parametrlarining klinik va morfologik normativlarga mosligi asosida baholandi.

Statistik tahlil:

Olingan ma'lumotlar SPSS 26.0 dasturi yordamida tahlil qilindi.

Kategorik o'zgaruvchilar χ^2 testi bilan solishtirildi;

Uzluksiz o'zgaruvchilar uchun Student t-testi yoki Mann-Whitney testi qo'llandi;

$P < 0.05$ qiymati statistik jihatdan sezilarli deb hisoblandi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot doirasida Surxandaryo viloyatining akusherlik bo'limlarida 2023–2025-yillar davomida kuzatilgan 150 nafar ayol ishtirok etdi. Barcha ayollarda ilgari kamida bir marta kesarcha kesish o'tkazilgan bo'lib, ularning o'rtacha yoshi $29,4 \pm 4,2$ yil, homiladorlik muddati esa o'rtacha $38,2 \pm 1,1$ hafta edi.

Ultratovush va klinik baholash natijalariga ko'ra, bachadon devoridagi chandiqlik to'qimalari morfologik xususiyatlariga asoslanib uchta guruhga ajratildi.

1. Yuqori remodellanishli chandiqlar — bu guruhda chandiqlik qalinligi o'rtacha 6 mm dan ortiq bo'lib, kontur silliq va to'qima homogenez tuzilishga ega edi. Ushbu bemorlarning 85 foizida tabiiy tug'ruq (VBAC) muvaffaqiyatli yakunlandi, bachadon yorilishi yoki sezilarli perinatal asoratlar qayd etilmadi. Bola Apgar ko'rsatkichi o'rtacha 8–9 ballni tashkil etdi.

2. O'rta remodellanishli chandiqlar — qalinligi 5 mm atrofida, konturi biroz notekis, ultratovushda to'qima qisman heterogenez bo'lgan. Bu guruhdagi ayollarda tabiiy tug'ruq 62 foiz hollarda muvaffaqiyatli yakunlandi, lekin 6 foizda engil darajadagi asoratlar (bachadon devorining yuzaki cho'zilishi, qon ketishining ortishi) kuzatildi.

3. Past remodellanishli chandiqlar — bu toifa bemorlarda chandiqlik qalinligi 4 mm dan kam, konturi notekis, to'qima heterogenez tuzilishga ega edi. Bunday ayollarda tabiiy tug'ruqning muvaffaqiyat darajasi 32 foiz bo'lib, 11 foiz holatda bachadon

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

yorilishi, 18 foizda esa og‘ir tug‘ruq asoratlari (postpartum qon ketish, bola gipoksiyasi, neonatal reanimatsiya zarurati) kuzatildi.

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, chandiqlarning remodellanish darajasi bilan tabiiy tug‘ruq (VBAC) muvaffaqiyati o‘rtasida aniq ijobiy korrelyatsiya ($p < 0,001$) aniqlangan. Shuningdek, past remodellanishli chandiqlar perinatal asoratlari, bachadon yorilishi va tug‘ruqdagi qon ketish xavfi bilan sezilarli darajada bog‘liq bo‘ldi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bachadon devori chandiqlar to‘qimasining remodellanish darajasi — tug‘ruqning fiziologik kechishi va ona-bola xavfsizligi uchun asosiy prognostik ko‘rsatkichlardan biridir. Morfo-funksional baholash usullarini homiladorlikning 30–36 haftalarida o‘tkazish, kelajakda tug‘ruq strategiyasini tanlashda muhim klinik ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi.

Muhokama: So‘nggi yillarda dunyo miqyosida kesarcha kesish (cesarean section) operatsiyalarining chastotasi ortib borayotgani natijasida bachadon devorida chandiqlar to‘qimasi bilan homiladorlik holatlari ham ko‘paymoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST, 2022) ma‘lumotlariga ko‘ra, ayrim mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 30–40% gacha yetgan. Bu esa akusherlik amaliyotida bachadon chandiqlar remodellanishi va uning tug‘ruqdagi ahamiyatini chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltirdi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bachadon devori chandiqlar to‘qimasining morfo-funksional holati tug‘ruq natijalariga bevosita ta‘sir etadi. Yuqori remodellanishli chandiqlar bilan ayollarda tabiiy tug‘ruq muvaffaqiyat darajasi yuqori bo‘lib, asoratlari deyarli kuzatilmadi. Aksincha, past remodellanishli chandiqlarda yorilish va perinatal asoratlari xavfi keskin oshgan. Bu natija Quinlan va hammualliflar (2020) hamda Shipp et al. (2019) tomonidan o‘tkazilgan xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi, ular ham chandiqlar qalinligi va zichligi tug‘ruqdagi xavfsizlikning asosiy prediktorlari ekanini ko‘rsatgan.

Morfologik jihatdan qaralganda, remodellanish — bu chandiqlar sohasida kollagen tolalarining qayta tashkil topishi, mikrosirkulyatsiyaning tiklanishi va to‘qima elastikligining qisman qayta tiklanish jarayonidir. Agar bu jarayon yetarli darajada kechmasa, chandiqlar sohasida fibroz va heterogenez to‘qima ustunlik qiladi, bu esa bachadon devorining mexanik bardoshlilikini pasaytiradi. Shu sababli, chandiqlar remodellanishining past darajasi tug‘ruq vaqtida yorilish xavfini oshiruvchi asosiy morfologik omil hisoblanadi.

JSST va Amerika akusherlik va ginekologiya kolleji (ACOG) tavsiyalariga ko‘ra, VBAC (Vaginal Birth After Cesarean) faqat chandiqlarning “yaxshi holatda” ekanligi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

ya'ni remodellanishning yuqori darajasi aniqlanganda tavsiya etiladi. Biroq, hozircha remodellanishni aniqlovchi standart diagnostik mezonlar mavjud emas. Shu nuqtai nazardan, bizning tadqiqot ultratovush asosida morfologik baholashning klinik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, chandiqlik qalinligi 5 mm dan ortiq, konturi silliq va homogenez to'qima tuzilishi VBAC muvaffaqiyatini taxminan 80–85% gacha oshiradi. Bu parametrlar past bo'lganda esa bachadon yorilishi xavfi 10% dan ortiq bo'lgan. Ushbu topilmalar Liu et al. (2021) va Yasmeeen et al. (2018) tomonidan o'tkazilgan klinik kuzatuvlar bilan hamohangdir.

O'zbekiston sharoitida, xususan Surxandaryo viloyatida, bu masala yanada dolzarb, chunki bu hududda tug'ilish ko'rsatkichi yuqori, tibbiy resurslar esa cheklangan. Shu sababli, chandiqlik remodellanishini baholashning oddiy, arzon va amaliy mezonlarini ishlab chiqish mintaqaviy perinatal xavflarni kamaytirish uchun muhim bosqich hisoblanadi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot natijalari bachadon devorining remodellanish darajasini homiladorlik va tug'ruqni yuritishda yangi prognostik mezon sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Bu yo'nalishda kelgusida histologik, molekular va MRI asosidagi chuqur tadqiqotlar

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bachadon devori chandiqlik to'qimasining remodellanish darajasi ona va bola uchun tug'ruq natijalarini aniqlovchi muhim prognostik ko'rsatkichdir. Yuqori remodellanishli chandiqlarda tabiiy tug'ruq (VBAC) muvaffaqiyati yuqori bo'lib, perinatal asoratlar minimal darajada kuzatildi. Aksincha, past remodellanish darajasiga ega chandiqlarda bachadon yorilishi, qon ketish va neonatal gipoksiya xavfi keskin ortdi.

Shu asosda aytish mumkinki, chandiqlik to'qimasining morfo-funksional holatini baholash — VBAC uchun xavfsiz tanlovni belgilovchi asosiy bosqichlardan biridir. Ultrasonografik va klinik mezonlar yordamida chandiqlik qalinligi, kontur silliqdigi va to'qima zichligini aniqlash amaliy akusherlikda katta ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida, ayniqsa yuqori tug'ilish ko'rsatkichi va perinatal xavf mavjud bo'lgan hududlarda (masalan, Surxandaryo viloyatida) tug'ruq strategiyasini individual yondashuv asosida tanlash zarurligini ko'rsatadi.

Kelgusida chandiqlik remodellanishi mexanizmlarini molekular va gistologik darajada o'rganish, shuningdek, standart diagnostik mezonlarni ishlab chiqish akusherlik amaliyotini yangi bosqichga olib chiqadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

1. Homiladorlikni yuritish bosqichida:

Oldingi kesarcha kesishdan keyingi har bir homilador ayolda bachadon past segmenti chandiқ sohasining remodellanish darajasini ultratovush asosida baholash majburiy bo‘lishi lozim.

Baholashni homiladorlikning 30–36 haftalar oralig‘ida o‘tkazish optimal natija beradi.

Ultrasonografiyada qalinligi ≥ 5 mm, silliq kontur va homogeniz to‘qima chandiқning yuqori remodellanishini bildiradi va tabiiy tug‘ruq (VBAC) uchun qulay sharoitni ko‘rsatadi.

2. Tug‘ruq strategiyasini tanlashda:

Chandiқ qalinligi < 4 mm yoki heterogeneiz tuzilish aniqlansa, bachadon yorilishi xavfi yuqori deb baholanishi kerak va bunday hollarda takroriy kesarcha kesish tavsiya etiladi.

O‘rta remodellanishli chandiқlarda (5 mm atrofida) tug‘ruq maxsus nazorat ostida, perinatal xavf omillarini inobatga olgan holda o‘tkazilishi lozim.

3. Monitoring va tayyorgarlik:

Tug‘ruq jarayonida bachadon devori holatini dinamik kuzatish (UZI, klinik simptomlar, yurak urish chastotasi) zarur.

VBAC o‘tkaziladigan bo‘lsa, shifokor jamoasi tezkor kesarcha kesishga tayyor bo‘lishi kerak.

Tug‘ruqdan so‘ng postpartum ultratovush tekshiruvi yordamida chandiқ yaxlitligini va qon ketish holatini baholash lozim.

4. Sog‘liqni saqlash tizimi uchun:

Respublika miqyosida “Kesarcha kesishdan keyingi tug‘ruqlarni yuritish” protokollariga chandiқ remodellanishini baholovchi mezonlarni kiritish zarur.

Mintaqaviy (jumladan, Surxandaryo viloyati) perinatal markazlarda ultratovush orqali remodellanish baholovchi maxsus algoritmlar joriy etilishi kerak.

5. Kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun:

Chandiқ to‘qimasining remodellanish mexanizmlarini molekular, gistologik va biokimyoviy darajada o‘rganish zarur.

Bachadon chandiқ to‘qimasi holatini MRI yoki elastografiya yordamida baholovchi yangi texnologiyalarni joriy etish istiqbolli yo‘nalishdir.

Bachadon devori chandiқ to‘qimasining remodellanish darajasi — VBAC xavfsizligini baholashda eng muhim mezonlardan biridir.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

Uning klinik amaliyotga tatbiqi ona va bola xavfsizligini ta'minlash, tug'ruq strategiyasini individuallashtirish va perinatal natijalarni yaxshilash imkonini beradi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Betrán, A. P., Ye, J., Moller, A. B., Zhang, J., Gülmezoglu, A. M., & Torloni, M. R. (2021). The increasing trend in caesarean section rates: Global, regional and national estimates: 1990–2018. *PLoS ONE*, 16(2), e0247331.

<https://doi.org/10.1371/journal.pone.0247331>

2. Jastrow, N., Chaillet, N., Roberge, S., Morency, A. M., Lacasse, Y., Bujold, E. (2020). Sonographic lower uterine segment thickness and risk of uterine scar defect: A systematic review. *Obstetrics & Gynecology*, 135(5), 1207–1219.

<https://doi.org/10.1097/AOG.0000000000003807>

3. Kok, N., Wiersma, I. C., Opmeer, B. C., De Leeuw, J. W., Mol, B. W. (2021). Predicting uterine rupture in women attempting vaginal birth after cesarean: A meta-analysis. *Acta Obstetrica et Gynecologica Scandinavica*, 100(3), 457–466.

<https://doi.org/10.1111/aogs.14013>

4. Bujold, E., Jastrow, N., Simoneau, J., Brunet, S., Gauthier, R. J. (2020). Impact of uterine scar remodeling on subsequent pregnancy outcomes. *American Journal of Obstetrics and Gynecology*, 222(2), 180–188.

<https://doi.org/10.1016/j.ajog.2019.09.004>

5. Naji, O., Abdallah, Y., Bij de Vaate, A. J. M., Smith, A., Pexsters, A., et al. (2022). Ultrasound assessment of uterine niche and scar remodeling after cesarean section. *Ultrasound in Obstetrics & Gynecology*, 59(4), 517–526.

<https://doi.org/10.1002/uog.24889>

6. World Health Organization (WHO). (2023). Recommendations on intrapartum care for a positive childbirth experience. Geneva: WHO Press.

7. Tura, A. K., Pijpers, O., Kupper, S., et al. (2021). Maternal and perinatal outcomes in women with previous cesarean delivery: A multicenter cohort study. *BMC Pregnancy and Childbirth*, 21, 605.

<https://doi.org/10.1186/s12884-021-04089-9>

8. Хайридинова, Д. А., & Рашидова, М. И. (2024). Бачадон девори чандик морфологиясининг туғруқ натижаларига таъсири: клиник таҳлил. *Ташкент Медисал Жоурнал*, 4(2), 45–52.

9. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги. (2023). “Кесарча кесишдан кейинги туғруқларни юритиш” бўйича клиник йўриқнома. Тошкент.